

XVIII ASR BIRINCHI YARMIDA QO‘QON VA JUNG‘OR XONLIKLARINING SISIY VA DIPLOMATIK MUNOSABATLARI TARIXIDAN

Orziev Mahmud Zaynievich,

Buxoro davlat universiteti “Jahon tarixi” kafedrasи dotsenti t.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.003>

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII asrning boshlarida Buxoro amirligidagi chuqur ijtimoiy-iqtisodiy inqirozning vujudga kelishi sabablari, ushbu inqiroz natijasida Farg‘ona vodiysida markaziy hokimiyatdan ajralib chiqish jarayoni sodir bo‘lishi va mustaqil Qo‘qon xonligining tashkil topishi, xonlikning vujudga kelishi bilan deyarli bir vaqtida Markaziy Osiyo mintaqasida o‘scha davrlarda qudratli bo‘lgan Jung‘or xonligi bosqiniga qarshi og‘ir kurashlar olib borilganligi keltirib o‘tilgan. Qo‘qon xoni Abdukarimbiyning jung‘orlarga qarshi faol qarshi kurashi, jung‘orlar hujumi vaqtida unga O‘ratepa hokimi Fozilbiyning yordamga kelishi, qalmoq (jung‘or)larning navbatdagi bosqinchilik yurishlari davrida Abdukarimbiy akasi Abduraximbiyning katta o‘g‘li Bobobekni garov sifatida berib yuborishi, bu esa Qo‘qon xonligining Jung‘or xonligiga vassalligini anglatishi, Abdukarimbiy vafotidan keyin, taxtga o‘tirgan Erdonabiy ko‘p vaqt o‘tmay, taxtga da’vo qilgan akasi Bobobekka Qo‘qon xonligi taxtini topshirganligi keltirilgan. Shuningdek, Bobobek Jung‘oriyada tarbiyalanganligi uchun qalmoqlarga sodiq qolganligi, Jung‘or xoniga Buxoroni zabit etib, unga bo‘ysundirishga va‘da qilganligi, ammo, o‘n oydan so‘ng mahalliy o‘zbek urug‘-qabilalari va qirg‘izlar uni taxtdan ag‘darib, Erdonabiyni taxtga o‘tqazishi, Erdonabiyning qalmoqlar bilan Qozoq juzlari bilan ittifoq bo‘lib olib borgan kurashlari va nihoyat Jung‘or xonligi tugatilgandan so‘ng, Sin imperiyasi bilan diplomatik munosabatlarning boshlanishiga oid fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Калит сўзлар: Жунгория, босқин, вассал, гаров, имтифоқ, дипломатик муносабат, хўжалар, истило, қўзғолон, Иссикқўл, элчи

ИЗ ИСТОРИИ ПОЛИТИКО-ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ КОКАНСКОГО И ДЖУНГОРСКОГО ХАНСТВ В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ XVIII ВЕКА

Орзиеv Mahmud Zaynievich,

Бухарский государственный университет доцент кафедры всеобщей истории к.и.н. (Кандидат наук)

Аннотация: В данной статье рассматриваются причины глубокого социально-экономического кризиса в Бухарском эмирата в начале XVIII века, процесс отделения от центральной власти в Ферганской долине в результате этого кризиса, а также установление. В статье обсуждается независимое Кокандское ханство, которое в то время было могущественным в Среднеазиатском регионе, и упоминается, что велась тяжелая борьба с вторжением Джунгарского ханства. Активная борьба Кокандского хана Абдукаримби с джунгарами, оратепский воевода Фазильби, пришедший ему на помощь во время нападения джунгров, брат Абдукаримби, старший сын Абдукаримби Бобобек, взятый в заложники во время очередных набегов калмаков (джунгров), что означает вассальную зависимость от Коканскоеханства перешло в состав Джунгарского ханства, после смерти Абдукаримби. Далее упоминается, что вступивший на престол Эрданаби передал трон Кокандского ханства своему брату Бобобеку, который вскоре после этого претендовал на престол. Также то, что Бобобек остался верен калмыкам, поскольку он воспитывался в Джунгарии, обещал завоевать Бухару и подчинить его хану Джунгарию, но через десять месяцев местные узбекские роды и кыргызы свергли его и возвеличение Эрданаби на престол, союз Эрданаби с калмыками и мнения казахов о начале дипломатических отношений с Цинской империей после окончания борьбы и, наконец, о прекращении Жунгарского ханства.

Ключевые слова: Джунгария, вторжение, вассал, залог, союз, дипломатические отношения, хозяева, завоевание, восстание, Иссык-Куль, посол.

FROM THE HISTORY OF POLITICAL AND DIPLOMATIC RELATIONS OF THE KOKAN AND JUNGOR KHANATES IN THE FIRST HALF OF THE 18TH CENTURY

Orziev Mahmud Zaynievich,

Bukhara State University Associate Professor of World History Department Ph.D. (PhD)

Abstract: In this article, the causes of the deep socio-economic crisis in the Bukhara Emirate at the beginning of the 18th century, the process of secession from the central government in the Ferghana Valley as a result of this crisis, and the establishment of the independent Kokand Khanate, almost simultaneously with the creation of the Khanate, are discussed. It is mentioned that in the Central Asian region, heavy struggles were waged against the invasion of the Dzung'or Khanate, which was powerful at that time. Kokan Khan Abdulkarimbiy's active fight against the Jungors, Oratepa governor Fazilbiy came to his aid during the attack of the Jungors, and during the next raids of the Kalmaks (Jungors), Abdulkarimbiy took Bobobek, the eldest son of his brother Abdurahimbiy, as a hostage. It is mentioned that after the death of Abdulkarimbi, Erdanabi, who ascended the throne, handed over the throne of the Kokan Khanate to his brother Bobobek, who claimed the throne. Also, because Bobobek was brought up in Dzungaria, he remained loyal to the Kalmyks, he promised Dzung'or Khan to conquer Bukhara and subjugate him, but after ten months, the local Uzbek clans and Kyrgyz comments on his overthrow and installation of Erdanabi on the throne, Erdanabi's battles with the Kalmyks in alliance with the Kazakhs, and finally the beginning of diplomatic relations with the Sin Empire after the termination of the Jung'or Khanate.

Key words: Dzhungaria, invasion, vassal, pledge, alliance, diplomatic relations, masters, conquest, rebellion, Issyk-kol, ambassador

Kirish. Qo‘qon xonligining tashkil topishi XVIII asr boshlariga to‘g‘ri kelsada, ashtarkoniylar davrida markaziy hokimiyatdan ancha uzoq bo‘lgan Farg‘ona vodiysi beklari amalda mustaqil siyosat yuritganlar. Qo‘qon xonligining asoschisi Shohruxbiy (1680/1709-1722 yy) bo‘lib, davlat tepasida o‘zbeklarning ming urug‘i vakillari turgan. Ammo, ayrim tarixiy adabiyotlarda afsona-rivoyat shaklidagi ma’lumotlar ham keltirilgan bo‘lib, ularning birida, Qo‘qon xonligini tashkil qilgan ming qabilasi yetakchisi Chamach (Chaman) biy ekanligi, uni Tog‘ayquli nomli qalmoq tarbiyalaganiga oid ma’lumotlarni uchratish mumkin. Ehtimolki jung‘orlar ta’siri kuchaygan davrda vujudga kelgan rivoyatlardan biri bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi. Ushbu maqolani mazmunan yoritishda mahalliy manbalardan foydalangan holda ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar T.K. Beysembievning “Ta’rix-i Shaxruxi” kak istoricheskiy istochnik, B.M. Babadjanovning Kokandskoe xanstvo: vlast, politika, religiya / B.M. Babadzh anov; res. S.U Karimova, N.I. Toshev; Nihu islamik area studies (Tokyo university), Institut vostokovedeniya Akademii nauk Respublikni Uzbekistan, Vohidov Sh. XIX-XXasr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. (genezisi, funksiyalari, namoyandalari, asarlari) asarlaridan, xorijiy (xitoy, mo‘g‘ul) manbalaridan foydalangan Sh.Qo‘ldoshevning Qo‘qon xonligi va Sharqiyy Turkiston: Siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari asari, Sh.M. Chimitdorjievning Vzaimootnosheniya Mongolii i Sredney Azii v XVII-XVIII vv asarlaridan, shuningdek, V.V. Bartold, Ch.Ch. Valixonov asarlaridan keng foydalandik.

Natijalar va munozaralar. Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan adabiyotlarda, Shohruxbiy davrida Qo‘qon xonligi mustaqil davlat bo‘lmaganligiga ishora qilib, Abulfayzxonni unga otaliq unvonini bergenligiga oid fikr-mulohazalarni B.M. Babadjanov tomonidan keltirib o‘tgan[3. 100]. Haqiqatdan ham Olimxongacha bo‘lgan Farg‘ona hukumдорлари biy unvonida yurganlar. Biy esa urug‘-qabila yetakchisi ma’nosini bildirgan xolos. V.V. Bartold Olimxon Qo‘qon xonligining haqiqiy asoschisi va birinchi bora amir unvonini olgan degan fikrlarni keltirgan. Shuningdek, uning ukasi Umarxon ham amir unvonida bo‘lib, undan keyingi hukumдорлар xon unvonini olgan deb yozib qoldirgan. Bundan tashqari davlatning ma’muriy va boshqaruv tuzilishi ham Olimxon davrida shakllangan degan fikrlarni keltirgan[4. 114].

Bizning fikrimizcha davlatning shakllanish jarayoni Olimxon davriga kelib yakuniga yetgan bo'lsa kerak.

Yangi tashkil topgan xonlik o'z mavjudligining dastlabki davrida Buxoro xonligiga qarshi faol istilochilik harakatlarini olib borgan. Shohruhbiyning o'g'li Abduraximbiy (1722-1734 yy) Shahrisabz bilan ittifoqda Abulfayzxonga qarshi kurash olib borib, Samarqand shahrini (1732 y) Buxorodan tortib olgan. Uning ukasi 1734-1750 yillarda hukumronlik qilgan ukasi Abdukarimbiy (Abduraxim-biy (1697/1722-1734 yy)-Qo'qon xonligining ikkinchi hukumdori, Shohruhbiyning o'g'li. Uning davrida Xo'jand va Andijon Qo'qon xonligiga qo'shib olingen. Buxoroga qarshi Shahrisabz kenagaslari bilan ittifoq tuzgan. 1732 yilda Samarqandni egallagan. 1734 yil suiqasd natijasida o'ldirilgan[3. 105]). Miyonko'lga qo'zg'olon ko'targan Ibodullobiy qipchoq ustiga 1745 yil qo'shin tortgan[5. 12]. Ushbu o'zaro kurash jarayonlari tashqi Jung'or xonligi tomonidan xavf kuchaygan bo'lsada olib borilgan.

Qo'qon xonligiga jung'orlarning bostirib kirishi Abdukarimbiy (Abdukarimbiy (1701-1750 yy) akasi Abduraximbiy vafotidan so'ng Qo'qon xonligining uchinchi (1734 yildan) xoni. 1740 yilda Qo'qon shahrini mudofa devori bilan o'rabi olgan. Shu yili qozoqlarning taniqli urug' boshliqlaridan va Toshkent hokimi bo'lgan Tolebiy Abdukarimbiy oldiga jung'orlardan qo'chib kelgan. Tolebiyni topshirishni talab qilgan jung'orlar elchisi haydam yuborilgan. Uning davrida Jung'or xonligi qo'shnlari Qo'qon xonligiga bir necha marta bostirib kirgan[13. 172-173]). hukumronligi davriga to'g'ri kelgan. Qalmoqlarning hujumi natijasida Qo'qon xoni o'zini mudofa qila olmasligi sababli jiyani (akasi Abduraximbiyning o'g'li) Bobobekni Jung'orlarga garov sifatida berib tinchlikka erishgan[15. 64; 3. 108]. Ammo, Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan mahalliy manbalarda Abdukarimbiyga O'ratega hokimi Fozilbiy yordamga kelishi, uning Abdukarimbiyning tutingan o'g'li ekanligi, ittifoqchilar g'alaba qozonganligi bilan bog'liq fikr-mulohazalar keltirilgan[14. 233]. Shuningdek, 1740-1741 yillardagi jung'orlarning harbiy yurishi davrida Abdukarimbiy nafaqat akasi Raximbiyning katta o'g'li Bobobekni garovga bergen, balki Jung'or xonligiga o'zining tobeligini ham bildirganligiga oid ma'lumotlar mavjud[13. 167]. T.K. Beysembiev "Ta'rix-i Shaxruxi" asaridagi ma'lumotlarni tahlil qilib, 1741-1745 yillarda Qo'qon hukumdori Abdukarimbiy jung'orlar hujumini daf qila olgan bo'lsada, jiyani Bobobekni garovga berib yuborganligi, Bobobek Urgida Jung'or xonlari saroyida tarbiya qilingani va keyinchalik qisqa muddat (1752-1753 yy) jung'orlar tomonidan xon qilib ko'tarilganligini keltirib, Qo'qon xonligi amalda Junhor xonligining vassali bo'lganligini ko'rsatib bergen[5. 12; 3. 80, 108]. So'nggi o'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlar bo'yicha yirik mutaxassis bo'lgan B.P. Gurevich ham 1741 yilda Jung'orlarning Farg'onaga hujumi vaqtida Abdulkarimbiyning biroz qarshilik ko'rsatishidan keyin bo'ysunishi bilan yakunlanganligiga oid mulohazalarini keltirib o'tgan[9. 64]. Xulosa qilish mumkinki, XVIII asrning o'rtalarida ma'lum bir muddat Qo'qon xonligi ham o'zini Jung'or xonligiga qaramligini tan olishga majbur bo'lgan.

Qo'qon xonligining jung'orlarga faol qarshilik ko'rsatishi XVIII asr 40-yillari o'rtalariga to'g'ri kelgan. Bu vaqtda Eronda Nodirshohning hokimiyatni qo'lga olishi, Buxoro tomonidan tashqi xavfning yo'qligi va qozoqlar bilan ittifoqchilik jung'orlarga qarshi faol kurash olib borish imkonini yaratgan. Ushbu xronologik davrda Qo'qon xonligi va uning ittifoqchilar bo'lgan qozoqlar bilan kurash olib borish Jung'or xonligini batamom kuchsizlantirgan va nafaqat O'rta Osiyoda, balki Markaziy Osiyoda siyosiy va etnik o'zgarishlarga olib kelgan[10. 13]. Bir so'z bilan aytganda, Jung'or xonligining halokatini yaqinlashtirgan. Qozoqlar va Abdukarimbiy ittifoqchilikda 1744 yilning kuzida Toshkent shahrini Jung'orlardan tortib olganlar. Shaharni ishg'ol qilish vaqtida asir olingan qalmoqlarning bir qismini Abdukarimbiy qo'yib yuborib, Jung'or xonini 1745 yil bahorida Kutebe degan mavzeda kutishini yetkazishni buyurganligi tarixiy adabiyotlarda qayd etilgan[10. 16]. O'zbeklar, qozoqlar va qirg'izlar birgalikda jung'orlarga qarshi kurash olib bora boshlaganlar.

Qo'qon xonligini bo'ysundirish maqsadida 1743 yilda Septen noyon boshchiligidagi 40 ming kishilik qo'shin Farg'onaga bostirib kirgan va mag'lubiyatga uchrab ortga qaytgan. Shundan so'ng, 1745 yil oyratlar yana Farg'onaga hujum qilgan. Qo'qon qamal qilingan bo'lsada, ko'zda utilgan maqsadlarga erishilmagan. Sibirdagi Barabin tatarlaridan bo'lgan savdogar Noshixon Amirovning Sibir ma'murlariga ma'lum qilishicha, 1748 yilda jung'orlar

yana Qo‘qon xonligiga hujum qilib talaganlar[9. 64]. Qo‘qon xonligining Jung‘or davlati bilan olib borgan kurashlari XVIII asrning 40-50 yillarida deyarli to‘xtovsiz olib borilgan deb xulosa qilishimizga tarixiy adabiyotlarda asoslar yetarli. Jumladan, Ch.Ch. Valixonov Galdan-Seren vafoti (1745 yil)dan oldin Qo‘qon bilan urush olib borayotganligini, o‘limidan biroz muddat oldin Farg‘onada shimolidagi Koson shahrini hiyla bilan bosib olganligi, Qo‘qon xoni Abdulkarimbiy Kosonga yuborgan yordamchi kuchlarini tor-mor keltirganligini yozib qoldirgan[6. 324]. Shuningdek, uning vafotidan keyin taxtga o‘tirgan o‘g‘li Seben-Dorji ham (1746 y) ushbu urushni davom ettirgan. Sin imperiyasi poytaxti Pekinga elchi yuborib, o‘zbeklar bilan urush olib borayotgani sababli unga qo‘sish, moddiy yordam berishini so‘ragan. Ammo, Xitoy tomoni ushbu murojaatga rad javobini bergan[6. 325]. Seben-Dorji o‘ziga boshqa ittifoqchi topishga harakat qilgan.

Movarounnahr davlatlari uchun XVIII asr o‘rtalari Janubiy-g‘arbdan Eronda kuch-qudrati cho‘qqisiga chiqqan Nodirshoh davlati, shimoliy-sharqdan Jung‘or xonligi ularning mavjudligiga xavf sola boshlagan. Nodirshoh davlati qudratidan cho‘chib yoki O‘rta Osiyo xonliklarini ta’sir doiraga bo‘lib olish maqsadida Jung‘or xonligida siyosiy tushkunlik boshlangan Sevan-Dorji hukumronligi davrida Nodirshohga xuntayji (xon) Sevan-Dorji 1746 yilda elchi yuborib, qarindoshchilik aloqalarini yo‘lga qo‘yishga harakat qilgan. Singlisini Nodirshohga turmushga bergen va Nodirshoh elchilarga qalin puli sifatida 10 ming kumush rubl bergen[13. 186]. Shuningdek, garchi Nodirshoh Qo‘qon xonligiga harbiy yurish qilmagan bo‘lsada, Qo‘qon xoni Abdulkarimbiy o‘zini Eron davlatiga vassalligini tan olgan. Nodirshoh Abdulkarimbiy vassaligini qabul qilib, kelajakda u orqali Qozog‘iston janubi va Jung‘oriya hududlariga o‘z siyosatini yuritishni maqsad qilganligi ilmiy tadqiqodlarda keltirib o‘tilganligini ko‘rish mumkin[10. 15]. Ushbu holat xalqaro munosabatlarda ma’lum bir tartibni o‘rnatgan degan fikrdan yiroqmiz. Chunki, o‘zaro kelishuv yoki bitim mavjudligi xususida biror ma’lumot tarixiy adabiyotlarda keltirilmagan. Qo‘qon va Jung‘or xonliklari o‘rtasidagi munosabatlar Abdulkarimbiy vafotidan keyin yana avj olgan.

Abdulkarimbiy vafot etgandan keyin (1750 yil) Qo‘qonda xonlik taxtiga kichik o‘g‘li Abduraxmon o‘tqazilgan. Ushbu holatni oliy hokimiyatni soyada turib boshqarishga urinish bo‘lgan deb xulosa qilish mumkin. To‘qqiz oy hukumronligidan keyin Abduraxmonni taxtdan tushirib Marg‘ilonga hokim qilib yuborganlar. Abdulkarimbiyning akasi Abduraxmonning ikkinchi o‘g‘li Erdona xon qilib ko‘tarilgan[8. 16]. Ammo, Qo‘qon xonligi taxti uchun kurashlar feodal guruhlar o‘rtasidagina emas, xalqaro maydonda ham olib borilgan. Jung‘orlar Abdulkarimbiy vafotidan keyin Qo‘qon taxtiga o‘z saroylarida tarbiyalangan Bobobekni taxtga o‘tqazishga urinadilar. Ammo, qirg‘izlar partiyasi ustun kelib, Erdonabiy (Irdonabiy yoki Erdonabiy-ikki marotaba taxtga chiqqan Qo‘qon xoni. Dastlab, Abukarim vafotidan keyin uning Abdurahmon ismli o‘g‘li 1750 yil, keyin 1751-1752 yillarda Irdonabiy, 1753-1754 yillar o‘n oy akasi Bobobek, 1753-1762 yillarda yana Erdona taxtga o‘tirgan [12. 14]. Ba’zi tarixiy adabiyotlarda Erdonabiy Erdona shaklida keltirilgan. Shuni nazarda tutib, ayrim olimlar Erdona yoki Erdona nomini mo‘g‘ulcha (oyratcha) Erdene-qimmatbaho tosh, xazina, noyob ma’nolarni beruvchi nomdan olingan degan fikrlarni ham keltirganlar[5. 80]). taxtga chiqqan[15. 64]. Ammo, jung‘orlarning talabi bilan Bobobekni taxtga o‘tqazilishi, Qo‘qon qamalida garov sifatida olib ketilishi, Oltiariqda qo‘sish yetakchilari tomonidan o‘ldirilib, Erdonabiy taxtga o‘tqazilishi Niyoz Muhammad Ho‘qandiy ma’lumotlarida keltirib o‘tilgan[11. 54]. Erdonabiy tashqi va ichki bosim sababli taxtni akasiga bo‘shatib bergen deb xulosa qilishga barcha asoslar yetarli.

Tarixiy adabiyotlardagi ma’lumotlarni tahlil qilib, Bobobek Qo‘qon taxi uchun kurashga Jung‘or xonini tortgan deb aytish mumkin. Chunki, jung‘orlar qo‘lida garov sifatida turgan Erdonaning akasi Bobobek Jung‘or xoni Lama-Dorjiga o‘zini Qo‘qonga xon qilib qo‘yish evaziga butun Buxoroni istilo qilishi va Jung‘or davlati vassalli bo‘lishni va’da qilgan. 1750 yilning kuzida Lama-Dorji qo‘zg‘olon ko‘targan Toshkentga qarshi qo‘sish yuborgan va shu bahonada jung‘orlar Bobobekni Qo‘qon taxtiga o‘tqazgan. Ammo, Bobobek 1753 yilda O‘ratepaga yurish vaqtida vafot etadi (aniqrog‘i fitna qurbanib bo‘lgan) va taxt yana Erdonabek qo‘liga o‘tgan[13. 209]. Ushbu ma’lumot yuqorida keltirgan fikrimizni asoslashga xizmat

qiladi. Chunki, B.P. Gurevich, M.B. Babajanov va T.K. Beysembiev keltirgan ma'lumotlari da ham Bobobek o'n oy xonlik qilgani va O'rategaga qilingan yurish vaqtida Beshariqda o'ldirilgani keltirilgan[9. 64; 5. 93 3. 109]. Demak, Qo'qon xonligida Jung'or xonligiga qarshi kuchli guruh shakllangan. Shuningdek, qirg'iz va qozoqlar bilan ittifoqchilik ham bunga sabab bo'lgan deb xulosa qilish mumkin.

XVIII asrning 50-yillaridan boshlab xalqaro munosabatlarda Jung'or xonligiga dushman bo'lgan kuchlarning faollashuvi kuzatilgan. Shu sababli Qo'qon xonligida taxt va davlat boshqaruvi ham o'zgargan. Jumladan, 1752-1754 yilda Sharqiy Turkistonda Yusufxo'ja isyoni sodir bo'lgan. Yusufxo'ja yordam so'rab o'z vakillarini musulmon davlatlar Qo'qon va Buxoroga yuborgan[7. 130]. Ehtimolki, ushbu chorlovga Qo'qon xonligi ijobjiy javob bergan. Chunki, tarixiy adabiyotlarda 1753 yilda Qo'qon xonligi qo'shinlari Issiqko'lda qalmoqlarni temir qazib oladigan asosiy markazidan biridan siqib chiqargan[6. 325]. Endilikda Jung'or xonligidan aziyat chekkan xalqlarning qarshi hujumlari boshlangan.

1753-1754 yilning qishida ham qozoqlarning qo'shinlari Jung'oriyadagi taxt uchun kurashlarda Davatsi tomonidan ishtiroy etgan. Shuningdek, qirg'izlarning ham Issiqko'l atroflarini jung'orlardan qayta tortib olish uchun kurashlari boshlangan. Qo'qon xonligi ham Jung'oriya parchalanishidan foydalanib qolishga harakat qilgan bo'lsa, Buxoro amiri Raximbiy Toshkent va Qoshg'ar xo'jalari orqali Jung'orlar bilan yaqin munosabatlar olib borishga harakat qilgan. Bu bilan u o'zining chegaralarini jung'orlar talonchiligidan asrashga harakat qilganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan[2. 117].

XVIII asr 50-yillari ikkinchi yarmi Jung'or xonligining Xitoy Sin imperiyasi tomonidan istilo qilinishining yakuniy bosqichi boshlangan. tinimsiz urushlar Jung'or xonligida iqtisodijitimoiy munosabatlari munosabatlarning keskinlashuviga olib kelgan. Bu esa Sin imperiyasi istilosini osonlashtirgan. Katta qo'shin bilan Jung'oriyaga kirgan Sin imperiyasi jung'orlarga nisbatan qirg'in uyushtirganligi sababli, jung'orlar turli hududlarga qochib ketishga majbur bo'lganlar. Xitoy qo'shinlari ta'qibidan qochgan qalmoqlarning bir qismi Farg'onaga bostirib kirgan[12. 15]. Qo'qon xonligi hududlari yana vayronagarchilik keltiruvchi kurashlar maydoniga aylangan. Dj.A. Abdukarimov tadqiqodlarida 1758 yilda qirg'indan g'arbg'a qochishga majbur bo'lgan jung'orlar Farg'onani talaganliklari, xususan Farg'onaning shimoliy hududlari, aniqrog'i Koson va uning atroflari katta talofot ko'rganligi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirib o'tilgan[1. 94]. Jung'orlar shundan so'ng O'rta Osiyo tarixida muhim siyosiy kuch sifatida butunlay tugatilgan.

Xulosa qilib aytganda, Jung'or davlati tashkil topgandan keyin, uning O'rta Osiyo xonliklari bilan xalqaro munosabatlardagi aloqalari asosan o'lja olish maqsadida qilinadigan istilochilik, bosqinlari bilan xarakterlangan. Garchi, O'rta Osiyo xonliklarini istilo qilish va bu yerda to'la hukumronlikni o'rnatish jung'orlarning rejasida bo'lmasada, Buxoro va Qo'qon davlatlarini o'z nazoratlarida ushlab turish, o'zları uchun qo'g'irchoq hukumdorni taxtga o'tqazish, savdo yo'llarida nazorat o'rnatish, Buxoro savdogarlari orqali Sibir, Eron, Afg'oniston, Hindiston kabi hududlar bilan iqtisodiy aloqalarni olib borishni ko'zda tutganlar. Qo'qon xonligining qozoq va qirg'izlar bilan birlashuvi uning mavjud bo'lib qolish shartlaridan biri bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдукаримов Дж.А. Политическое положение Ура-тюбинского владения и Худжанда в начале XVIII- до 40-х г. XIX вв. (по материалам «Мунтахаб ат-таварих» Мухаммада Хакимхана). // Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Худжанд-2020. - 191 с.

2. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии. XVI-XVIII вв. (письменные памятники) – Т.: Фан, 1985. - 264 с.

3. Бабаджанов, Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия / Б.М. Бабаджанов; рец. С.У Каримова, Н.И. Тошев; Nihu islamik area studies (Tokyo university), Институт востоковедения Академии наук Республики Узбекистан. - Ташкент; Токио: Yangi nashr, 2010. - 744 с.

4. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана [Текст] / В.В. Бартольд; АН

СССР. Комиссия по изучению естественных производительных сил СССР. - Ленинград: АН СССР, 1927. - 256 с.; 28 см.

5. Бейсембиев Т. К. «Та’рих-и Шахрухи» как исторический источник. - Алма-Ата: Наука, 1987. - 200 с.

6. Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том II. – Алма- Ата: Главная редакция Казахской советской энциклопедии, 1985. – 416 с. 21 см., 88 илл.

7. Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том III. – Алма- Ата: Главная редакция Казахской советской энциклопедии, 1985. – 416 с.21,5 см., 66 илл.

8. Вохидов Ш. XIX-XXаср бошларида Кўқон хонлигига тарихнависликнинг ривожланиши. (генезиси, функциялари, намояндадари, асарлари). – Т.: Akademnashr, 2010. – 369 б.

9. Гуревич Б.П. Международные отношения в Центральной Азии в XVII – первой половине XIX в. Второе, дополненное издание. – М.: Наука, 1983. – 308 с.

10. Елшибаев С.К. Южный Казахстан и Kokандское ханство в XVIII-середине XIX веков // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Душанбе-2013. – 26 с.

11. Ибратул хавокин / Ниёз Мұхаммад Хўқандий; (Та’рихи Шахрухий): Худоёрхон авлодлари тарихи / Шоҳруҳбек Умаров. – Т.: Турон замин зиё, 2014. – 468 б.

12. Кўлдошев Ш. Кўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон: Сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар [Матн] / нашрга тайёрловчи Шерали Кўлдошев. – Т.: Arademnashr, 2021. – 256 б.

13. Моисеев В.А. Джунгарское ханство и казахи (XVII-XVIII вв.). – Алма-Ата: Гылым, 1991. - 238 с.

14. Мұхаммадхакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих: (Хўқанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар) / Мұхаммадхакимхон тўра; форс-тожик тилидан тарж., муқаддима, изоҳлар ва кўрсатгичлар муаллифи Ш.Вохидов. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. - 716 б.

15. Чимитдоржиев Ш.М. Взаимоотношения Монголии и Средней Азии в XVII-XVIII вв. – М.: Наука, 1979. – 84 с.

16. 12. Orziyev M. On the aspects of zahiriddin muhammad babur's political activity related to bukhara. Центр научных публикатсий (buxdu. uz)

17. Orziyev M. Амир темур сиёсий фаолияти ва бухоро уламолари Центр научных публикатсий (buxdu. uz) 8 (8)

18. Orziyev M. On the role of bukhara in the development of science and culture during the reign of amir temur and the temurids Центр научных публикатсий (buxdu. uz) 8 (8)